

ANTROPONIM KOMPONETLI FRAZEMALARNING O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA QIYOSIY O‘RGANILISHI

Xazirbayeva Mehribon,
Ajinyoz nomidagi NDPI ning
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistratura bo‘limi 2-bosqich magistranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va turkman tillarida uchraydigan antroponim komponentli frazeologik birliklarning shakllanish manbalari, semantik xususiyatlari va lingvokulturologik ahamiyati tahlil qilinadi. Frazeologizmlar tarkibidagi shaxs ismlarining milliy mentalitetni aks ettirishdagi roli, ularning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy yondashuv orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, antroponim, antroponim komponentli frazemalar, o‘zbek tili, turkman tili, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, shaxs ismi, epik qahramon, tarixiy shaxs, xalq og‘zaki ijodi, majoziy ma‘no, semantika, til va madaniyat aloqadorligi, turkiy tillar, frazeologik tizim.

Аннотация. В данной статье анализируются источники формирования, семантические особенности и лингвокультурологическая значимость фразеологизмов с антропонимическими компонентами, встречающихся в узбекском и туркменском языках. Роль личных имен в составе фразеологизмов в отражении национального менталитета, их сходства и различия освещаются посредством сравнительного подхода.

Ключевые слова: фразеологизм, антропоним, фраземы с антропонимическими компонентами, узбекский язык, туркменский язык, сравнительный анализ, лингвокультурология, имя человека, этический герой, историческая личность, устное народное творчество, переносное значение, семантика, связь языка и культуры, тюркские языки, фразеологическая система.

Abstract. This article analyzes the sources of formation, semantic features, and linguocultural significance of phraseological units with anthroponymic components found in the Uzbek and Turkmen languages. The role of personal names in phraseological units in reflecting the national mentality, their similarities and differences are highlighted through a comparative approach.

Keywords: phraseology, anthroponymy, phrases with anthroponymic components, Uzbek language, Turkmen language, comparative analysis, linguoculturology, personal name, epic hero, historical figure, folklore, figurative meaning, semantics, connection between language and culture, Turkic languages, phraseological system.

Kirish. Til har bir xalqning eng qadimiy, eng ishonchli ma‘naviy boyligidir. Unda nafaqat grammatik qoidalar yoki lug‘aviy birliklar, balki ming yillar davomida shakllangan milliy dunyoqarash, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar, diniy tushunchalar va ijtimoiy tajriba mujassam bo‘ladi. Frazeologik birliklar esa tilning ana shu boy qatlamlarini eng yorqin tarzda ifoda etuvchi hodisalardan biridir. Frazeologizmlar ma‘no ko‘chishi, obrazlilik, majoziy ifoda va emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgani uchun ular xalq tafakkurining betakror mahsuli sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi hamda tilimizga Davlat tili maqomining berilganligi o‘zbek tilining funksional-uslubiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga tilshunosligimiz oldiga bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal etish vazifalarini qo‘ydi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunosligimizda frazeologiya bilan bog‘liq bir qancha ilmiy ishlarning amalga oshirilganligi hech kimga sir emas. Shuningdek, antroponim komponentli frazemalarni tadqiq qilish, ularni lingvokognitiv

hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada o'sdi.

Frazeologik birlik – yagona semantik ma'no ostida birlashgan hamda inson faoliyatining turli sohalari haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan turg'un so'z birikmalaridir. Frazemalar ham lug'aviy birlik sifatida lisoniy o'zgarishlarni, semantik jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Frazemalarni tahlil qilish orqali nafaqat muayyan davrning lug'at fondiga, ифдлш халқ tafakkuri, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, qadriyatlariga kirib borishi mumkin.

Shuningdek, o'zbek va turkman tilshunosligida frazeologik birliklarning etimologik ildizlari va ularning lingvomadaniy tabiati Sh. Rahmatullayev hamda turkman olimlarining tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lsa-da, antroponim komponentli frazemalarning qiyosiy-tipologik tahlili hali ham alohida va tizimli o'rganishni talab etadigan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, komponent tahlil va lingvokulturologik tavsif metodlaridan foydalanilgan bo'lib, o'zbek va turkman tillaridagi antroponim komponentli frazemalar umumturkiy kontekstda o'zaro qiyoslangan. Ishda lisoniy birliklarning semantik qatlamlarini aniqlashda lug'at va arxiv materiallariga tayanilgan, shuningdek, shaxs ismlarining frazeologik ma'no hosil qilishdagi roli hamda ularning milliy mentalitetni ifodalash xususiyatlari statistik va etimologik tahlillar asosida yoritib berilgan.

Tahlillar va natijalar. Tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo'lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasi tilshunoslikning onomastika bo'limi tadqiq qiladi. Onomastika – yunoncha so'z bo'lib, “nom qo'yish san'ati” degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Frazeologik birliklarning muhim guruhlaridan biri – antroponim komponentli frazemalar, ya'ni tarkibida shaxs nomi (ism, laqab, tarixiy shaxs nomi) ishtirok etuvchi iboralardir. Bunday frazemalar xalqning dostonlaridagi qahramonlarni, tarixiy shaxslarni, diniy arboblarni, milliy mentalitetda muhim o'rin tutuvchi obrazlarni o'zida aks ettiradi. Ular shaxs nomi vositasida ma'lum axloqiy-ruhiy sifatni, fe'l-atvorni yoki ijtimoiy holatni ifodalaydi. Masalan, “Rustamdek kuchli”, “Görögli ýaly batyr”, yoki eng qadimgi oldingi ma'nosini bildirish uchun “Daqqiyunusdan beri”, “Daqqiyunusdan qolgan” kabi iboralar orqali xalqning qadimiy qahramonlik tushunchasi til birliklariga singib ketganini ko'rish mumkin. O'zbek va turkman xalqlari umumiy turkiy ildizga ega bo'lib, ularning tili, madaniyati, og'zaki ijodiy an'analari o'zaro jiddiy mushtarakliklarga ega. Shu bois bu ikki tilda uchraydigan antroponim komponentli frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish g'oyat muhimdir. Birinchidan, bu tadqiqot turkiy tillarning umumiy til-madaniy manzarasini ochib beradi. Ikkinchidan, frazeologizmlardagi shaxs ismlari orqali xalqning qadimiy

e'tiqodlari, tarixiy ong, ma'naviy qarashlar aks etgani bois, bu iboralarni o'rganish lingvokulturologik tahlil uchun ham juda ahamiyatlidir. Bugungi kunda frazeologiyada antroponimiyaga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Chunki shaxs nomlari til tizimida faqat grammatik birlik sifatida emas, balki kulturozomiy markazi sifatida ham xizmat qiladi. Har bir ism o'zida ma'lum tarixiy, diniy yoki badiiy ma'no yuklaydi va frazeologik birlik tarkibida yangi, ko'pincha ramziy ma'noni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va turkman tillaridagi antroponim komponentli frazemalarning qiyosiy tahlili ushbu iboralar ortida yashiringan umumiy turkiy ildizlarni, milliy o'ziga xosliklarni, umumiy mentalitet elementlarini ochishda yordam beradi.

Antroponim komponentli frazemalar ikkala tilda ham metafora, metonimiya va satisifikatsiya vositalari sifatida ishlatiladi. Sintaktik jihatdan -dek, -day, singari, kabi kabi solishtirma elementlar har ikkala til iboralarida ham uchraydi. Turkman tilida bu *yaly* so'ziga to'g'ri keladi. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"da keltirilgan ba'zi iboralarni ko'rishimiz mumkin. Bular: "*Bo'zchining mokisiday*" "*Holvachining teshasiday*", "*Makkadan Hoji kelganday*", "*Mulla mingan eshshakday*" kabi. Turkman tilida bo'lsa "*Atasy olen yaly*", "*Çaga yaly*", "*Çaşyň gözune sereden yaly*", "*Ädikçiniň ädigi bitmez diýenleri yaly*" kabilarni uchratishimiz mumkin.

Tarixiy shaxslarning frazeologik birliklarga aylanishi. Tarixiy shaxslar – hukmdorlar, sarkardalar, davlat arboblari; ularning ismlari frazeologik birliklarga aylanishi orqali konkret axloqiy yoki ijtimoiy bahoni ifodalaydi. Masalan, O'zbek tilida "Daqiyunusdan qolgan" "Daqiyunusdan beri" iborasi qadimda yashagan yoki qadim zamonlardan qolgan, eskidan qolgan, qadimiy kabi ma'nolarni bildiradi. Shuningdek, bu iborani tilimizda qo'llar ekanmiz birqancha hodisalarga guvoh bo'lamiz. Birinchidan, shaxs tarixiy xotira sifatida shakllanadi. Shu bo'yicha omma, xalq orasida bu shaxsga doir rivoyatlar vujudga keladi. Ushbu rivoyatlar an'anaviy nutqda soddalashtiriladi va qiyosiy iboralarda atrof-muhit elementlari bilan birga ishlatiladi. Natijada ismi frazeologizmga aylanadi va mustahkam leksik birlik sifatida til fondiga kiradi. Bu iboraning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shunday rivoyat mavjud: "Daqyunus tarixiy yunon shohi bo'lib, undan qochgan va 300 yil uxlatib qo'yilgan kishilar – "G'or egalari" haqida islomiy manbalarda ma'lumot berilgan. 300 yil uxlab turganlardan biri non olish uchun yonidan chaqa pul chiqarganda do'kondor: Axir bu pul daqyunusdan qolgan-ku. Eski-ku", – deydi. Iboraning kelib chiqishi shu voqeaga borib taqaladi.

Darhaqiqat, antroponim komponentli frazemalar faqat o'zbek va turkman tillarida emas, balki turkiy xalqlarning barcha tillarida qadimdan uchraydi. Ularning paydo bo'lishi quyidagi tarixiy va madaniy omillarga bog'liqdir. Tarixiy hodisalar bilan bog'laydigan bo'lsak masalan, "To'marisdek jasur" iborasi qadimgi tarixiy hukmdor To'marisning qarshiligi va jasoratini ifodalaydi. Shu tarzda shaxs ismi bilan tarixiy voqea o'rtasidagi bog'lanish frazemaga chuqur semantik qatlam beradi. Undan tashqari antroponimlar asosan xalq og'zaki ijodida – doston, rivoyat, ertak, maqol va latifalarda uchraydi. Bu

birliklar xalqning milliy qahramonlik tushunchasini shakllantiradi. O‘zbek tilida “Alpomishdek mard” iborasi epik qahramonning jasoratini ifodalaydi. Turkman frazeologiyasida Görögly va Gorkut ata kabi qahramonlar tavsifi keng tarqalgan, ular ko‘pincha ijobiy fazilatlarni qisqacha belgilar orqali ifodalaydi.

O‘zbek va turkman tillaridagi antroponim komponentli frazemalar tilshunoslik va lingvokulturologiya nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu frazemalar xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o‘zida aks ettiradi, shuningdek, milliy mentalitet va qadriyatlarning til orqali uzatilishini ta‘minlaydi. Tahlil asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin: Antroponim frazemalar tarixiy shaxslar, epik qahramonlar, diniy arboblardan va xalq og‘zaki ijodidan kelib chiqadi. O‘zbek tilida tarixiy shaxslar va diniy arboblardan nomi ko‘proq asos sifatida ishlatilsa, turkman tilida epik qahramonlar va doston qahramonlari frazeologik birliklar tarkibida markaziy rol o‘ynaydi. Bu frazemalarning semantik qatlamlari nafaqat ma‘no, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy nuqtai nazardan ham boy. Antroponim komponentli frazemalar nutqning turli registerlarida ishlatiladi: kundalik nutq, adabiy matnlar, og‘zaki ijod va rasmiy kontekstlarda. Ular ijobiy yoki salbiy baho berish, emotsional kuchaytirish, hazil yoki kinoya ifodasi, shuningdek pedagogik va tarbiyaviy maqsadlarda qo‘llanadi. Shu sababli, frazemalar lingvistik jihatdan ham, madaniy jihatdan ham ko‘p qirrali xususiyatga ega. O‘zbek va turkman tillari frazeologiyasi o‘zaro mushtarak turkiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, har bir tilning madaniy va tarixiy xususiyatlari frazemalarning shakllanishida, ishlatilishida va ma‘nosida farqlarni keltirib chiqaradi. O‘zbek tilida frazemalar ko‘proq tarixiy va diniy shaxslar bilan bog‘liq bo‘lsa, turkman tilida ular epik va folkloriy qahramonlar atrofida shakllanadi. Shu bilan birga, har ikki tilda frazeologik birliklar tilning obrazlilik, majozilik va konnotativ boyligini oshiradi. Antroponim frazemalar milliy identifikatsiya va tarixiy xotirani saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular xalqning qadriyatlari, axloqiy-etik qarashlari va madaniy kodlarini til orqali uzatadi. Shu sababli, frazeologik birliklarni o‘rganish lingvokulturologik tadqiqotlarda, shuningdek til ta‘limi va madaniy merosni o‘rgatishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, antroponim komponentli frazemalarni sistematik ravishda o‘rganish, ularning kategoriyalari, manbalari va semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali tilning boyligi va xalqning madaniy merosi yanada ravshanroq ochiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu frazemalarni darslarda qo‘llash orqali talabalar til bilan birga tarixiy va madaniy bilimlarni ham o‘zlashtiradi. Kelgusidagi ilmiy ishlar uchun tavsiya qilinadi: antroponim frazemalarning elektron korpusi tuzilishi, frazeologik birliklarning hududiy va yoshga bog‘liq farqlarini o‘rganish, frazemalarni boshqa tillarga tarjima qilish strategiyalarini ishlab chiqish va vizual-pedagogik materiallar yordamida o‘rganish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turkman tillaridagi antroponim komponentli frazemalar nafaqat lingvistik tahlil, balki madaniy, tarixiy va pedagogik tadqiqotlar uchun ham qimmatli manbadir. Ularning o‘rganilishi tilning semantik boyligi,

xalqning madaniy va tarixiy xotirasi, shuningdek turkiy xalqlar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni ochib beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oyibov U. Kognitiv semantika nazariyasida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tahlili// O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild, № 3. – B. 84-113. <https://doi.org/10.36078/1751020336>
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. – B. 60.
3. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
4. Türkmen diliniñ frazeologik sözlügi. Aşgabat,2013. – B. 203.

